



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 30-oktabr

608-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 24-oktabrdagi 694-son, viloyat hokimining shu mazmundagi 2024-yil 25-oktabrdagi 510-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 24-oktabrdagi 694-sonli, viloyat hokimining shu mazmundagi 2024-yil 25-oktabrdagi 510-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan,

### Q A R O R   Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 24-oktabrdagi 694-sonli, viloyat hokimining shu mazmundagi 2024-yil 25-oktabrdagi 510-6-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag‘ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ-209-son qaroriga muvofiq:

xalqaro kinofestival va kino taqdimotlarida mukofotlangan milliy filmlar ijodkorlarini rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Kinematografiyani rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy komissiya to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Filmlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko‘maklashuvchi milliy kengash to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Xalqaro kinofestival va kino taqdimotlarida mukofotlangan milliy filmlar ijodkorlarini rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Madaniyat bo‘limi (R.Xoliqova) manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-oktabrdagi 694-son qarori talablaridan kelib chiqib, ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**